

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
**UDK: 336.761 (575.1)**

**XURRAMOV ESHMAMAT XUDOYBERDIYEVICH**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV QIMMATLI**  
**QOG‘OZLARINI BOZOR QIYMATINI BAHOLASH AMALIYOTINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi**

**Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari doktori,**  
**professor X.X.Xudoyqulov**

**Toshkent – 2025**

## **MUNDARIJA:**

|                                                                                                                                              |            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                           | <b>3</b>   |
| <b>I-BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING ORPORATIV QIMMATLI QOG‘OZLARINI BAHOLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSALARI.....</b>                         | <b>12</b>  |
| 1.1. Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog‘ozlarini baholashning ilmiy-nazariy jihatlar.....                                  | 12         |
| 1.2. Aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini baholash bo‘yicha mavjud usullarining nazariy asoslari.....                                   | 26         |
| 1.3. Aksiyadorlik jamiyatlarining obligasiyalarini baholash usulidan foydalanishning ilmiy-uslubiy ahamiyati.....                            | 38         |
| <b>Birinchi bob bo‘yicha ilmiy xulosalar.....</b>                                                                                            | <b>51</b>  |
| <b>II-BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING ORPORATIV QIMMATLI QOG‘OZLARINI BAHOLASHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....</b>                          | <b>53</b>  |
| 2.1. O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini baholashni amaldagi holati tahlili .....                                      | 53         |
| 2.2. Aksiyadorlik jamiyatlarini obligasiyalarini qiymati baholash amaliyoti.....                                                             | 82         |
| 2.3. Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog‘ozlari qiymatiga ta’sir etuvchi omillar va ularni ekonometrik modellash.....       | 89         |
| <b>Ikkinchi bob bo‘yicha ilmiy xulosalar.....</b>                                                                                            | <b>100</b> |
| <b>III-BOB. O‘ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV QIMMATLI QOG‘OZLARI QIYMATINI BAHOLASH YO‘LLARI TAKOMILLASHTIRISH.....</b> | <b>102</b> |
| 3.1. O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarni bozor qiymati baholash amaliyotini takomillashtirish.....                            | 102        |
| 3.2. O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari obligasiyalari qiymatini baholashni usulini takomillashtirish.....                               | 117        |
| <b>Uchinchi bob bo‘yicha ilmiy xulosalar.....</b>                                                                                            | <b>227</b> |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                                                                           | <b>131</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>                                                                                               | <b>134</b> |
| <b>ILOVALAR.....</b>                                                                                                                         | <b>143</b> |

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertasiya mavzuning dolzarbligi va zarurligi.** Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotida integrasiya jarayonlari jadal sur'atlarda chuqurlashib borayotgan sharoitda, yirik institusional moliya institutlari o'z kapital resurslarini o'sish potensiali taraqqiy etgan davlatlarnikidan yuqori bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga yo'naltirmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoya oqimlari tez sur'atda oshib borayotganiga qaramay, kapital bozorlarining kapitallashuv darajasi, axborot shaffofligi, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligi, qimmatli qog'ozlar narxlarining volatilligi hamda oldi-sotdi bilan bog'liq tranzaksion xarajatlarning yuqoriligi kabi omillar aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymati bo'yicha baholashda ilg'or usullarni qo'llash ehtiyojini kuchaytirmoqda. Masalan, 2024-yilda kapital bozorining kapitallashuvi yalpi ichki mahsulotga nisbati Tayvanda 289,2 foiz, Tailandda 104,2, Janubiy Koreyada 90,4, Indoneziyada 55,7, Turkiyada 30,9 va Polshada 42,3 foizni tashkil etdi<sup>1</sup>. Bu esa, o'z navbatida, korporativ qimmatli qog'ozlarni riskni etarlicha inobatga olgan holda zamonaviy baholash usullari orqali aniqlash zarurligini yaqqol tasdiqlaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga investisiya oqimining izchil o'sishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozori qiymatini baholashda zamonaviy usullardan foydalanish taqozo etmoqda. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozori qiymatini baholashda tizimili va tizimsiz risklarni aniqlash, aksiyalar bozor qiymatini, obligasiyalar bozor qiymatini aniqlashda dividend diskont usulidan, erkin pul oqimlari usulidan, kapital aktivlarni baholash usulidan, absolyut va nisbiy baholash usullaridan foydalangan holda korporativ qimmatli

---

<sup>1</sup> [https://www.ceicdata.com/en/indicator/market-capitalization--nominal-gdp?utm\\_source](https://www.ceicdata.com/en/indicator/market-capitalization--nominal-gdp?utm_source)

qogʻozlarning bozor qiymatini baholash hamda aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qogʻozlar bozor qiymatini baholashga taʼsir etuvchi omillarni makro va mikro darajadagi taʼsirini aniqlash boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda davlat ulushi yuqori boʻlgan aksiyadorlik jamiyatlarini qimmatli qogʻozlarini erkin savdo chiqarish orqali kapital bozorini rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, soʻnggi yillarda mamlakatda aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qogʻozlarini emissiya qilish va erkin kapital bozorida savdosini taʼminlash maqsadida institusional asoslar yaratildi. SHu sababli, 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni koʻpaytirish maqsadida kelgusi besh yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga etkazish”<sup>2</sup> vazifasi alohida belgilab berilgan. Bu esa, oʻz navbatida, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qogʻozlarini bozor qiymatini baholash boʻyicha usullar foydalanish ikmoniyati beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2022-yil 25-avgustdagi PF-186-son “Strategik davlat aktivlarini xususiylashtirishni jadallashtirish va davlat ishtirokini qisqartirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2022-yil 14-dekabrdagi PF-256-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va ularning faoliyati samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2021-yil 13-apreldagi PQ-5052-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish va investisiya muhitini yaxshilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2022-yil 25-avgustdagi PQ-3666-son “Davlat aktivlarini samarali boshqarish va ularni xususiylashtirishning yangi bosqichi boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son

---

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” gi farmoni. PF-60-son, 2022 yil 28 yanvar.

“Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda 2024-yil 5-yanvardagi PQ-2-son “Kapital bozorini liberallashtirish va IPO jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Fond bozori aktivlarini baholashning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy muammolari G.Markovis, J.Tobin, U.S.Harp, J.Linter, YA.Mosin, J.V.Duglas, M.E.Blyum, F.Blek, M.Jensen, M.Skoulz, J.Makbet, S.Basu, R.Benz, D.Ctantman, B.Rozenberg, R.Merton, S.Ross, J.Kempbell, E.Fama, K.French, T.Assefa, O.Eskida va A.Mollik kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Kaplan, S., and Ruback, R. 1995. The valuation of cash flow forecasts: An empirical analysis. The Journal of Finance, Vol. 56, No. 4, pp.1059–1093. Kayo, E. K., Martelanc, R., Brunaldi, E. O., & da Silva, W. E. (2024). Capital asset pricing model, beta stability, and the pricing puzzle of electricity transmission in Brazil. Energy Policy, 142, 111485. doi:10.1016/j.enpol.2024.111485. Kim, M., and Ritter, J. (1999). Valuing IPOs. Journal of Financial Economics, Vol 53, Issue 3, pp. 409-437. Kruger, P., Landier, A. and Thesmar, D. (2011). The WACC Fallacy: The Real Effects of Using a Unique Discount Rate, available at: <http://ssrn.com/abstract=1764024>. Kruschwitz, L & Löffler, A., 2024. Stochastic Discounted Cash Flow: A Theory of the Valuation of Firms. 1th Ed. Springer International Publishing. Leland, H., 1994. Corporate debt value, bond covenants, and optimal capital structure. Journal of Finance Vol. 49, No. 4., pp.1213–1252. Lie, E., Lie, H.J., 2002. Multiples Used to Estimate Corporate Value. Financial Analysts Journal 58, 44-54. Lintner, J. (1965). The Valuation of risk assets and the selection of risky investments in stock portfolios and capital budgets. The Review of Economics and Statistic, Vol.47, No.1, pp.13-37 Liu, J., Nissim, D., and Thomas, J. (2007). Is Cash Flow King in Valuations? Financial Analyst Journal, Vol 63, Issue 2, pp.56–65. Luong, T. S., Qiu, B., and Wu, Y. A. (2021). Does it pay to be socially connected with Wall Street brokerages? Evidence from cost of equity. Journal of Corporate Finance Volume 68, doi: 10.1016/j.jcorpfin.2021.101939. Marc Bertoneche, RoryKnight., 2011. Financial Performance. Butterworth-Heinemann. ISBN: 9780750640114. pp. 109-136. Marcus, B. (2024) The impact of the covid-19-crisis on business valuation. Mello, Antonio S., and John E. Parsons, 1992. Measuring the agency cost of debt, Journal of Finance Vol 47, No.2, pp. 1887–1904. Michela A., Giovanni A., Marco G., 2019. Performance Measurement and Management for Engineers. Academic Press. ISBN: 978-0-12-801902-3. pp 19-42. Miller, M. H. (1977). Debt and taxes. Journal of Finance, 32(2), 261–275. Miller, M. H. and F. Modigliani, 1961, “Dividend policy, growth, and the valuation of shares”, Journal of Business, No. 4, 411-433. Miller, M.H. and F. Modigliani (1961). Dividend policy, growth, and the valuation of shares. Journal of Business. -No. 4. – pp. 411-433

Mazkur olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash bo'yicha mavjud muammolar yoritilgan. Xususan, G.Markovis zamonaviy portfel nazariyasida ilk bor korporativ qimmatli qog'ozlarni bozor qiymati bo'yicha tadqiqot olib borgan. SHuningdek, U.SHarp esa, aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalarini bozor qiymatini baholashda bozor indeksini inobatga olgan holda baholash mexanizimini takomillashtirgan. Keyinchalik, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash nazariyasi yuzasidan qator iqtisodchi olimlar o'rtasida turli munozaralar holatlar kuzatilgan bo'lib, ularni hal etishda E.Fama va K.French tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'zlari ilgari surgan nazariyada aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholashga bozor indeksidan tashqari boshqa bir qator omillar ham ta'sir qilishini tadqiqotlarida isbotlar berganlar.

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholashning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar SH.SH.SHoxa'zamiy, L.I.Butikov, M.B.Xamidulin, N.G'.Karimov, X.A.Qurbonov, U.A.Burxonovlar, tomonidan ham amalga oshirilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup>Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari. Iq.fan.dok il.dar olish uchun yoz.dis. avtoreferati. –T., 2018. –30 bet. Sh.I.Mustafaqulov “O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish” Avtoreferat T, 2017, 26 b. M.Eshov “Korxonaning fundamental qiymatini boshqarish:nazariya va amaliyot” Monografiya.-T.: “Manaviyat”, 2024.-200 bet. A.Burkhanov & Kh.Khudaykulov (2013) “Investment valuation in emerging markets: oportunities & specific factors” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 7, pp 1-9. Shoxazamiy Sh.Sh. Sh.Sh. “Metodologicheskiye osnovy i prioritety strategicheskogo razvitiya ryinka sennyy bumag v Uzbekistane”. Avtoreferat st. 1-42, T; 2011g, Shoxazamiy Sh.Sh. “Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar” darslik T., TFI. 2012, bet-440.; Butikov L.I. “Problemy formirovaniya i funkcionirovaniya ryinka sennyy bumag v Uzbekistane” Avtoreferat T,-2008, st.1-41, Butikov I.L. Ryнок sennyy bumag. Uchebnik. – T.: Konsauditinform, 2001-472 s; N.G'.Karimov “Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari” Avtoreferat, T,- 2007, bet.1-40, N.G'. Karimov va R.X. Xojimatov. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. –T.: TDIU, 2011, 771-787 bet; Xamidulin M.B. Razvitiye finansovogo mexanizma korporativnogo upravleniya.–T.: Moliya, 2008,–204 s; B.Toshmurodova va boshqalar. Korporativ moliyani boshqarishning dolzarb masalalari: Monografiya. T.: “Iqtisod-moliya”, 2017. B. 188 bet.; Elmirezayev S. Korporativ moliya. Darslik . - T.: “Iqtisod-moliya”, 2019-y. 363 bet.; Elmirezayev S. Zamonaviy korporativ boshkaruv: Darslik / - T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. 416 b.; Muxamedov F. “O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish yo'nalishlari” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati: T.: 2019 766. Karimkulov J. “O'zbekiston

CHunonchi, SH.SH.SHoxa'zamiy aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini aniqlashda aktivlarni baholash modellari nazariyasidan foydalanish maqsadga muvofiq, deb ta'kidlasa, biroq, N.G'.Karimov tadqiqotida aktivlarni baholash nazariyasiga tadqiq qilib, bugungi kunda amaliyotda G.Markovis nazariyasiga nisbatan U.SHarp nazariyasining samaradorliroq ekanligini e'tirof etadi.

X.A.Qurbonovning tadqiqotida moliyaviy aktivlarni baholash modelining kompaniyalar kapitali qiymatni baholash va uning doirasida amalga oshirilgan investisiya loyihalari uchun talab qilinadigan daromad darajasini aniqlashda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini,

YUqorida qayd etib o'tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash masalalari nazariy jihatdan yoritib berilgan bo'lsa-da, biroq mamlakatimiz korporativ qimmatli qog'ozlarni turli xildagi ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda baholash bo'yicha etarlicha o'rganilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

**Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan, 2020-2025-yillarga mo'ljallangan "Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi strategik yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish yo'llari" I.f.n. ilmiy daraja olish uchun taqdim etilgan diss. avtoref. - Toshkent. 2012. - 206. J.Qurbonov va boshqalar. Xalqaro IPO amaliyotlari tahlili: tashkiliy xususiyatlari va institutsional investorlar ishtiroki. "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. №1(137) 2021-yil. - B.57.; N.Tursunova. "Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish yo'llari".

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini baholashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;

O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini baholashni amaldagi tadqiq etish;

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarni bozor qiymati baholash amaliyotini takomillashtirish yo'llarini tadqiq etish;

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar va ularni ekonometrik modellashtirish;

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari obligatsiyalari qiymatini baholashni usulini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot vazifasini hal etishda ilmiy abstraktsiyalash, empirik, iqtisodiy-matematik modellashtirish, statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini fond bozordagi target qiymatini aniqlashda chegirmaviy pul oqimlarini usulidan foydalanish orqali diskont stavkani belgilash chegarasi ( $20\% \leq DS \leq 30\%$ ) asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlariga jalb qilingan qarz qiymatini aniqlashda jalb qilingan kreditlar va emissiya qilingan korporativ obligatsiyalarini inobatga olgan holda qarz koeffitsiyentining maqbul qiymati ( $D_r \leq 0,5$ ) taklif qilingan;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarini



aktsiyalarini “bitta aktsiya – bitta lot” tamoyili asosida bozor qiymatini aniqlash orqali ommaviy savdolarga chiqarish taklifi asoslangan;

O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining aktsiyalari bozor qiymati o‘shining panel ma'lumotlarga ko‘ra regression ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

aksiyadorlik jamiyatlarini investision salohiyatini va moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatini hamda qo‘shilgan kapitalni o‘shish potensialini aniqlash imkoniyatini beradi;

aksiyadorlik jamiyatlarini aktivlari ortishiga jalb qilingan qarzni ta’siri qanchalik ekanligini va jamiyatlarining faoliyati bilan bog‘lik risklarni qanchalik ekanligini hamda qarz instrumentlar orqali jamiyatlarining faoliyatini moliyalashtirish yuqori va past chegarasini aniqlash imkoniyatini beradi;

aksiyadorlik jamiyatlarini aktsiyalarini ommaviy savdoga chiqarilayotganida bozor qiymatni aniqlash va jamiyatlarga investorlarni jalb qilish hamda aktsiyalar paketini bozorga joylashtirishni tezlashtirish imkoniyatini beradi;

aksiyadorlik jamiyatning kapital rentabellik, aktivlar rentabellik, qarz kapitali hamda jamiyatning sof foydasini ta’sir darajasi va o‘shish dinamikasini baho berish imkoniyati yaratdi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlantirish agentligi, O‘zbekiston davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli Loyihalar Milliy Agentligi Korporativ Axborot Yagona Portali, “Sharg‘unko‘mir” AJ hamda “O‘zbekko‘mir” AJlarining rasmiy ma'lumotlarining tahlillariga tayangan, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning ishonchliligi undagi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, ya’ni O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari nashr va hisobotlaridan olinganligi va

ularni aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda moliya bozorini yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash mexanizmini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati moliya bozorini rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish hamda moliya bozorini rivojlantirishda foydalanish, shuningdek, fond bozoriga mahalliy hamda xorijiy investorlarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish maqsadida qabul qilinadigan qonun va qonun osti hujjatlari, mamlakat Prezidentining farmonlari, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aktsiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif hamda tavsiyalar asosida:

aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyalarini fond bozordagi target qiymatini aniqlashda chegirmaviy pul oqimlarini usulidan foydalanish orqali diskont stavkani belgilash chegarasi ( $20\% \leq DS \leq 30\%$ )ni asoslash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini bajarilishida qo'llanilgan ("Sharg'un ko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 9-apreldagi №01-700-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarini investitsion salohiyatini va moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatini hamda qo'shilgan kapitalni o'sish potensialini aniqlash imkonini bergan;

aktsiyadorlik jamiyatlariga jalb qilingan qarz qiymatini aniqlashda jalb qilingan kreditlar va emissiya qilingan korporativ obligatsiyalarini inobatga olgan

holda qarz koeffitsiyentining maqbul qiymati ( $Dr \leq 0,5$ ) taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini bajarilishida qo'llanilgan ("Sharg'un ko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 9-apreldagi №01-700-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy qilinishi aksiyadorlik jamiyatlarini aktivlari ortishiga jalb qilingan qarzni ta'siri qanchalik ekanligini va jamiyatlarining faoliyati bilan bog'lik risklarni qanchalik ekanligini hamda qarz instrumentlar orqali jamiyatlarining faoliyatini moliyalashtirish yuqori va past chegarasini aniqlash imkonini bergan;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalarini "bitta aktsiya – bitta lot" tamoyili asosida bozor qiymatini aniqlash orqali ommaviy savdolarga chiqarish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini bajarilishida qo'llanilgan ("Sharg'un ko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 9-apreldagi №01-700-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy qilinish natijasida aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalarini ommaviy savdoga chiqarilayotganida bozor qiymatni aniqlash va jamiyatlarga investorlarni jalb qilish hamda aksiyalar paketini bozorga joylashtirishni tezlashtirish imkonini bergan;

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari bozor qiymati o'sishining panel ma'lumotlarga ko'ra regression ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini bajarilishida qo'llanilgan ("Sharg'un ko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 9-apreldagi №01-700-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatning kapital

rentabellik, aktivlar rentabellik, qarz kapitali hamda jamiyatning sof foydasini ta'sir darajasi va o'sish dinamikasini baho berish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha 9 ta ilmiy ishlar, shundan 5 ta mahalliy jurnallarda, 2 ta xalqaro jurnallarda maqola va tezaslar, 2 ta ma'ruza tezlari chop qilingan.

**Dissertasiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertasiya kirish, uchta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning umumiy hajmi 143 betdan iborat.